BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

OMONOVA SHAHNOZA ABDULLAYEVNA

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasi magistranti.

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) mashg‘ulotlar yordamida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda nutq madaniyatini yuksaltirishning psixologik va pedagogik omillari tahlil qilinib, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlar orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, hamkorlikdagi ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashi, o'z mulohazalarini erkin ifoda etishi hamda kasbiy nutqiy faolligini oshirishdagi o'rni ilmiy asoslab berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: nutqiy ko‘nikmalar, kollaborativ ta’lim, bo'lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, nutq madaniyati.

Jahon ta'lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va muloqotga erkin kirisha oladigan kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichida axborot almashinuvi va kommunikatsiya jarayonlari mislsiz darajada tezlashgan bo'lib, bu holat har bir mutaxassisdan, ayniqsa, ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglardan yuksak nutqiy kompetensiyani talab etadi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirish masalasi faqatgina tilshunoslik yoki didaktikaning emas, balki butun ta'lim taraqqiyotining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida baholanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda aynan shu

masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida o'quv jarayonida interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'qituvchilarning nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini yuqori bosqichga olib chiqish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ta'lim muassasalarida, xususan, oliy pedagogik ta'limda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish shunchaki an'anaviy ma'ruzalar orqali emas, balki ularni jamoaviy ishlashga undaydigan kollaborativ yondashuvlar yordamida amalga oshirilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarning ilk bilim olishi, dunyoqarashi, muloqot madaniyati va shaxsiy fazilatlari shakllanishida asosiy rol o‘ynaydigan muhim shaxsdir. Pedagogning nutqi – bu fikrning, dunyoqarashning va shaxsiyatning amaliy ifodasidir. O‘qituvchi o‘z nutqi bilan namuna bo‘lishi, har tomonlama muloqotni rag‘batlantirishi, o'quvchilarda so'zlashuv madaniyatini shakllantirishi lozim. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar kattalarga, eng avvalo, o'z ustozlariga taqlid qiladilar. Agar o'qituvchining nutqi ravon, mantiqiy jihatdan izchil, ifodali va emotsional jihatdan ta'sirchan bo'lsa, bu o'quvchining psixologik va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aks holda, o'qituvchining nutqiy nuqsonlari o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va o'zini namoyon etishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) ta'lim texnologiyalari eng samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Kollaborativ ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda o'rganadigan, birgalikda bilim yaratadigan, fikr almashadigan va umumiy yechim topadigan jarayonidir. Jahon tajribasida, ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida talabalarni guruhli ishlashga yo'naltiradigan bunday metodlar keng tatbiq etilmoqda. Ushbu yondashuv talabalarga nutqiy ko‘nikmalarni faqat til

o'rganish emas, balki ijodiy, interaktiv va samarali kommunikatsiya doirasida o'zlashtirish imkonini beradi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, Jan Piajening intellektual rivojlanish bosqichlari hamda Lev Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi kollaborativ ta'limning ilmiy asosini tashkil qiladi. Vigotskiy ta'kidlaganidek, talaba o'z mustaqil faoliyatida yechim topa olmaydigan muammolarni tengdoshlari va ustozlari bilan o'zaro hamkorlik orqali osonlikcha o'zlashtiradi. Dars jarayonidagi ochiq munozaralar, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish, loyiha ishlari va rolli o'yinlar talabalarni faol muloqotga kirishishga yo'naltiradi.

Nutqiy ko'nikmalar faqatgina so'zlash qobiliyatidan iborat emas. Ularning asosiy tarkibiy qismlariga ifodali nutq, faol tinglash qobiliyati, savol berish san'ati, o'z mulohazalarini to'g'ri yuritish va munozara olib borish madaniyati kiradi. Ifodali nutq o'zida so'zlarni to'g'ri tanlash, nutq tezligini me'yorda saqlash hamda intonatsiyani boshqarishni mujassam etadi. Kollaborativ yondashuv aynan mana shu tarkibiy qismlarni bir vaqtning o'zida, amaliyot bilan bog'lagan holda kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirish masalasiga innovatsion yondashish, ushbu jarayonda kollaborativ mashg'ulotlarning o'rni va pedagogik mexanizmlarini chuqur tadqiq etish bugungi kun pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kollaborativ mashg'ulotlar yordamida rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda uni oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi bo'lib, insonning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida uning o'rni beqiyosdir.

Ilmiy manbalarda nutqning og'zaki va yozma, shuningdek, tashqi va ichki turlari farqlanadi. Tashqi nutq boshqa insonlarga axborot yetkazish maqsadida xizmat qilsa, ichki nutq so'zlovchining o'z ongida turli xil masalalarni muhokama qilishiga qaratilgan bo'ladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy ish quroli ularning nutqi ekanligini hisobga olsak, ular nafaqat grammatik qoidalarni bilishi, balki ijtimoiy vaziyatga mos nutqiy xulq-atvor hamda muloqot madaniyatini ham mukammal egallashlari shart.

Psixologik nuqtai nazardan, nutq va tafakkur jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Psixolog Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolada nutqning shakllanishi uning intellektual rivojlanishining bevosita ifodasi hisoblanadi. Tilni o'zlashtirish kognitiv tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lib, kognitiv tuzilmalar paydo bo'lmaguncha til imkoniyatlari cheklangan holda qoladi. Shuningdek, L.S. Vigotskiy o'zining "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida o'quvchining hozirda mustaqil bajara oladigan darajasigagina emas, balki o'qituvchi yoki tengdoshlari ko'magida erishishi mumkin bo'lgan potensial rivojlanishiga ham tayanish lozim. Bu esa pedagogdan ta'limda individual va jamoaviy yondashuvlarni to'g'ri tanlashni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, bular lingvistik, psixologik va pedagogik omillardir. Lingvistik omillar – til tizimining boyligi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va grammatik normalarga to'liq amal qilishni o'z ichiga oladi. Psixologik omillar shaxsning hissiy holati, stressga chidamliligi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda ijtimoiy muhitdagi o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, psixologik jihatdan barqaror insonlarning nutqi ravon, mantiqiy va tushunarli bo'ladi. Pedagogik omillar esa ta'lim jarayonidagi o'qituvchining yondashuvi, qo'llaniladigan didaktik vositalar hamda ta'lim mazmunini qamrab oladi.

Zamonaviy pedagogikada mazkur omillarni hisobga olgan holda nutqni rivojlantirishning eng ta'sirchan usuli sifatida kollaborativ (hamkorlikka asoslangan)

ta'lim e'tirof etilmoqda. Kollaborativ ta'lim – o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish, bahslashish, birgalikda yangi bilimlarni kashf etishga yo'naltirilgan interfaol jarayondir. Bu yondashuv konstruktivizm poydevoriga asoslangan bo'lib, bilimlarni tayyor shaklda yodlashni inkor etadi; aksincha, muloqot va amaliyot orqali mustaqil bilim yaratishni targ'ib qiladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar ham hamkorlikka asoslangan usullarning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, M.A. Bracket tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-emotsional o'qishdagi (SEL) "RULER" yondashuvi o'quvchilarning emotsiyalarni tan olish, tushunish, ifodalash va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish orqali nutqiy madaniyatni yuksaltirishini amalda isbotlagan. J.A. Durlakning tadqiqotlarida esa kollaborativ usullar darsga bo'lgan qiziqishni 50% gacha oshirishi va bu orqali nutqiy hamda oqilona fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi ta'kidlangan.

Kollaborativ ta'lim muhitida dars jarayonlari guruhli ishlar, muammoli vaziyatlarni yechish, dramatizatsiya, rolli o'yinlar va ochiq munozaralar shaklida tashkil etiladi. Guruhlarda ishlash davomida talabalar turli xil nuqtai nazarlarni tinglashga o'rganadilar, o'z fikrlarini qat'iy va asosli tarzda himoya qilish ko'nikmasini egallaydilar hamda umumiy kelishuvga (murosaga) erishish malakasini shakllantiradilar. Bu jarayonda pedagog an'anaviy bilim beruvchidan yo'naltiruvchi, maslahatgo'y va faol hamkor maqomiga o'tadi.

Shuningdek, bugungi axborotlashgan jamiyatda nutqiy faollikni oshirish uchun ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hamda multimedia vositalarini faol jalb etish maqsadga muvofiqdir. Interaktiv doskalar, audio-video materiallar asosida topshiriqlar tuzish, onlayn forumlarda muloqot qilish bo'lajak o'qituvchilarni turli xil nutqiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Zero, kollaboratsiya shunchaki guruh bo'lib ishlash emas, balki ishonch, ochiqlik va chuqur hurmatga asoslangan zamonaviy muloqot madaniyatidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu

kompetensiyalarni oliy ta'lim jarayonida to'liq o'zlashtirsalar, kelajakda yosh avlod tarbiyasida chinakam ma'naviy-ma'rifiy yetakchi bo'la oladilar.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi va jamoada ishlash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, kollaborativ ta’limda o‘quvchi passiv obyekt emas, balki ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida maydonga chiqadi. Bunday o‘quv muhitida talaba bilim olish jarayonida faol qatnashadi, o‘z fikrini erkin ifoda etadi, bahs-munozarada qatnashib, qat'iy qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi-subyekt bo‘lgan ta’lim muhitida o‘qituvchi faqatgina dars beruvchi nazoratchi emas, balki chinakam yo‘naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etadi.

O‘quvchining darsdagi faol ishtiroki kollaborativ ta’limning yuragi hisoblanadi. Guruhli ishlarda har bir ishtirokchi jamoa a’zosi sifatida o‘z fikrini bildiradi, boshqalarni quloq solib tinglaydi va umumiy qarorga kelishga harakat qiladi. Bu amaliy jarayonda o‘zaro hurmat, jamoaviy mas’uliyat, murosaga kelish, ijtimoiy faollik hamda boshqalarning xilma-xil fikrlarini to'g'ri qabul qilish kabi hayotiy va kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi. Muhokama jarayoni talabalarning turli nuqtai nazarlarni ilgari surishi, o‘z dalillarini ilmiy jihatdan asoslab berishi va raqiblarining mulohazalarini tahlil qilishi orqali nutqiy madaniyatni rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat gapirish, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini chuqurlashtiradi.

Birgalikda qaror qabul qilish amaliyoti esa muhokama davomida bildirilgan o'nlab fikrlarni umumlashtirish, eng maqbul va mantiqiy yo‘lni topish, barchaning to'laqonli kelishuviga asoslangan yakuniy xulosaga kelishni anglatadi. Bu jarayonda talabalar o‘z shaxsiy ehtiroslarini chetga surib, umumiy maqsadga xizmat qiluvchi eng to‘g‘ri yechimni qidiradilar. Shu orqali ular o‘zaro mas’uliyatni his qilishadi, jamoa bilan hamnafas ishlash ko‘nikmasini o'zlashtirishadi. Demak, kollaborativ ta’limdagi o‘quvchining faol ishtiroki nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabaning shaxsiy

nutqiy va intellektual rivojlanishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda fikri mustaqil, tashabbuskor pedagog bo‘lib shakllanishiga kuchli zamin yaratadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u psixologik hamda didaktik omillarning uzviy uyg‘unligiga tayanadi. Nutqiy faoliyatning taraqqiy etishi shaxsning tafakkuri, idrok etishi, xotirasi va kundalik kommunikativ ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, bo'lajak mutaxassislarning nutqiy salohiyatini shakllantirishda talabalarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularning erkin fikr yuritishi va o‘zini ifoda etishiga qulay muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy madaniyatini samarali yuksaltirish uchun innovatsion ta'limning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, auditoriya mashg'ulotlarida kollaborativ metodlar imkoniyatlaridan keng va o'rinli foydalanish talab etiladi. Mazkur yondashuvning tizimli ravishda amaliyotga joriy etilishi kelgusida bitiruvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishga, yosh o‘quvchilar bilan to'g'ri, samimiy va samarali muloqot olib borishga hamda ta’lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarishga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi (Darslik). – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 109 b.

Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada pedagogik innovatsion texnologiyalar. – T.: 2013. – 279 b.

To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 314 b.

Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.

Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Изд-во «Лабиринт», 1999. – 352 с.

Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. – М.: Логос, 2004. – 384 с.

Ладыженская Т.А. Система работы по развитию связной устной речи учащихся. – М.: Педагогика, 1975. – 256 с.

Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1959. – 288 p.

Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki A. B. The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions // Child Development, 82(1), 2011. – P. 405-432.

Johnson D. W., Johnson R. T. Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning (5th ed.). – Boston: Allyn and Bacon, 1999. – 260 p.